

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING INDIVIDUAL PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI VA TA'LIM TARBIYANING AHAMIYATI

University of business and science

Psixologiya yo'nalishi kunduzgi ta'lim 25-02 guruh talabasi

Mamasiddiqova Latofat Akramjon qizi

Ilmiy raxbar: Jurayev Xaydarjon Odilboyevich

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda o'quvchilarining individual psixologik xususiyatlarining bilib, shundan kelib chiqqan xolatda ularga ta'lim va tarbiya berishning nazariy jixatdan yoritildi.

Kalit so'zlar: Individual psixologik xususiyat, shaxs, krizis, akkomidatsiya, tafakkurning mantiqiyliqi.

Аннотация: В данной статье рассмотрены теоретические аспекты познания индивидуально-психологических особенностей своих воспитанников в начальном образовании и воспитания их в вытекающем из этого состоянии.

Ключевые слова: индивидуально-психологическая характеристика, личность, кризис, аккомодация, логичность мышления.

KIRISH

Bizga ma'lumki kichik maktab yosh davrida bola shaxsining shakilanishi juda ham tez rivojlanadi, har bir ishtimoiylashuv jarayonida bolada yangicha fikr va tafakkur bilishga bo'lgan extiyoj tobora kuchayib boraveradi bu esa boladagi senzitivlik davri deb ataladi. Kichik maktab yosh davri ontoginezning 6 – 7 yoshlardan 9 – 10 yoshlargacha bo'lgan davrlarni o'z ichiga oladi, uning psixikasi bilim olishga yetadigan darajada rivojlanadi. Kichik maktab yoshidagi bolaning muhim xususiyatlaridan biri, unda o'ziga xos ehtiyojlarning mavjudligidir, bu davrda bola, fan asoslarini o'rganish uchun biologik va psixologik jihatdan tayyor boladi. Fiziologlarning fikriga ko'ra, 7 yoshga kelib bolaning katta miya yarim sharlari ma'lum darajada rivojlangan boladi.

Lekin bu yoshda inson miyasining psixik faoliyatni rejalashtirish, boshqarish, nazorat qilish kabi murakkab shakllariga javob beradigan maxsus bolimlari hali toliq shakllanib bolmagan boladi (miyaning bu qismlari 12 yoshda rivojlanib boladi).

Psixolog olimlarning fikricha, psixik va evolutsiya taraqqiyot qonunlari ham fizik qonunlardek buzilmas, hamda universalidir. Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib aytish mumkinki, neyrofiziologik jihatdan ixtiyoriy diqqat va o'qish uchun zarur bolg an ko'plab miyada kechadigan jarayonlar asosan 7 – 8 yoshda (aqliy yoshi o'zib ketgan bolalarda olti yoshda ham) shakllanadi. Ya'ni shu yoshda bola 45 minutlik aqliy mehnatga tayyor boladi.

Kichik maktab yosh davrida bolalarda o'qishning boshlanishi 7 yoshda boladigan to'rtinchi fiziologik krizis bilan mos keladi (bola organizmida jadal bo'yni o'sishi, ichki organlarning kattalashuvi, vegetativ o'zgarishlar bilan bog'liq bolgan keskin endokrin o'zgarishlar ro'y beradi). Manashu yosh davrlarida bolalarda psixologiyasida ichki motivlarida o'zgarishlar yuz beradi boxchadan maktabga o'tgan bolada **«Men shuni xohlayman»** motividan **«Men shuni bajarishim kerak»** motivi ustunlik qila boshlaydi. Maktabda birinchi sinfga kelgan har bir o'quvchida psixik zo'riqish kuchayadi. Bu nafaqat uning jismoniy salomatligida, balki xatti-harakatida ham, masalan, ma'lum darajada qo'rquvning kuchayishi, irodaviy faollikning susayishida namoyon boladi.

Tipologik yondashuvlar esa temperamentni klassik toifalarga bo'lish orqali aniqlaydi: sangvinik, xolerik, flegmatik va melanxolik. Sangvinik shaxslar ijtimoiy, faol va sezgir bo'lsa, xoleriklar energiyali, qarorli va harakatga tayyor bo'ladi. Flegmatik shaxslar osoyishta, barqaror va chidamli, melanxoliklar esa hissiy sezgir va o'z-o'zini tahlil qiluvchi xususiyatlarga ega . Ushbu klassifikatsiyalar tadqiqotlarda shaxsni umumiy tushunish uchun qulay vosita bo'lib xizmat qiladi, biroq zamonaviy psixologiya uni yanada batafsil va individual yondashuv bilan to'ldirishga intiladi. Empirik tadqiqotlar temperament va xarakter o'rtasidagi murakkab o'zaro aloqani ko'rsatadi. Masalan, tadqiqotlar shuni bildiradiki, temperament shaxsning asosiy reaktiv xususiyatlarini belgilaydi va u bilan bog'liq bo'lgan hissiy reaksiyalarni

prognozlash mumkin . Shu bilan birga, xarakter shaxsning ijtimoiy va shaxsiy tajribasi orqali shakllanadi, bu esa o'z navbatida temperamentga bog'liq xatti-harakatlar va stressga moslashuvchanlikni yanada rivojlantiradi. Masalan, yuqori harm avoidance va past self-directedness kombinatsiyasi shaxsning qaror qabul qilish qobiliyatini cheklashi mumkin, ammo samarali pedagogik yoki psixologik aralashuvlar orqali self-directednessni oshirish mumkin.

Temperament va xarakter o'rganishining amaliy ahamiyati keng. Pedagogika sohasida shaxsning individual xususiyatlarini hisobga olish, o'quvchilarning o'qishga motivatsiyasini oshirish va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Klinika psixologiyasida esa bu yondashuv shaxsga individual terapevtik strategiyalar ishlab chiqish va stressni boshqarish bo'yicha tavsiyalar berishda muhim vosita hisoblanadi . Shuningdek, tadqiqotlar temperament va xarakterning sog'liq va psixologik barqarorlik bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatadi, bu esa shaxs rivojini diagnostika qilishda qo'llaniladigan ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi .

Kishi xarakteridagi bunday xislat avvalo uning o'z mehnat faoliyatlari va hattiharakatlarida ko'zlaydigan maqsadning aniqlik darajasidan iborat bo'ladi. Kishidagi irodaviy faollik intilishdan boshlanishi, intilishlar esa qanchalik anglab olinganligiga qarab bir-biridan farq qilishi sababli, odamlar xakteri ham, ularda qanday intilish ustun bo'lishiga qarab, bir-birlaridan farq qiladilar. Ba'zi odamlarning qiladigan harakatlarida hali yaxshi anglab olinmagan intilish, ya'ni moyillik ustunlikni egallaydi. Bunday kishilarning intilishi, ko'pincha, noaniq, bemazmun bo'ladi. Bunday kishilar hamma vaqt nimanidir qidiradilar, nimanidir qumsaydilar, doimo ularga nimadir yetishmaydi, nimadir istaydilar, ammo uning nima ekanligini o'zlari ham bilmaydilar. Bunday odamlarni hech narsa qanoatlantirmaydi. Ularda hamma vaqt zerikish, homushlik, «nolish», «tajribasizlik»ni ko'ramiz. Bunday odamlarda, ko'pincha, ko'ngli notinchlik, bezovtalik va hovliqish bo'ladi. Bunday odamlarning hatti-harakatlarida rejasizlik, tanglik ko'p bo'ladi. Ba'zi odamlar nimaga intilayotganliklarini anglaydilar, lekin uni amalga oshirish uchun faoliyat ko'rsatmaydilar. Ular hamisha nimanidir qumsaydilar, noliydilar, o'zlarini va atrofdagi

kishilarni tanqid qiladilar. Bunday odamlar orzu-xayollar (ko'pincha, «yaxshi» niyatlar) ga beriladilar, goho-goho g'ayratlari jo'sh uradi, ammo aslida ular faoliyatsiz, sustkash bo'ladilar. Bunday xislatlar, asosan, tarixiy o'tmish kishilari xarakteri alomatlari bo'lib, zamonamiz kishilari xarakteridan uzoqlashib bormoqda. Kishi xarakterining muhim ijobiy xislati maqsadga intilishdir, kishida muayyan hohish tariqasidagi batamom anglab olingan intilishning ustun turishidir.

N.S.Leytes mulohazalariga kora, inson yoshi ulg'aygan sari aqliy rivojlanish darajasi birmuncha kotariladi, uquvchanlik xususiyati esa birmuncha pasayadi. Kichik maktab yoshidagi bolalarning uquvchanligi, albatta, o'smir va o'spirinlarga nisbatan yuqori, lekin o'smir va o'spirinlarning aqliy rivojlanganligi boshlang'ich sinf o'quvchilariga nisbatan yuqoridir.

Psixologlarning ta'kidlashicha bolalarda o'qishga nisbatan ijobiy munosabat kichik maktab davrining oxirlariga kelib, birmuncha pasayish ko'zga tashlanadi. O'quv faoliyatiga qiziqish esa 1 – 2 sinflarda ko'tarilib, 3 – 4-sinflarda pasayadi. Kichik maktab yoshida o'qishga qiziqishning pasayish sabablaridan biri sifatida **V.A.Suxomlinskiy** o'qituvchi tomonidan past bahoning ko'p qo'yilishi, bu esa bolada o'qishga nisbatan qiziqishning pasayishi va o'z imkoniyatlariga nisbatan bolgan ishonchning pasayishida deb biladi.

Xulosa o'rnida shuni takidlash mumkinki bolada maktabga ilk qadamida uning psixikasida yuzaga keladigan xolatlar va o'zgarishlarni yuqoridagi nazariy fikirlardan bildik, endi esa manashunday xolatlarni xisobga olib ota-onalar va pedagoglar o'z ish faoliyatlarida bolalarga to'g'ri munosabat bildirib bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini pasaytirmasdan ularning individual psixologik xususiyatlarini xisobga olib o'quv faoliyatga tarbiyaviy jarayonlarga yo'naltirishsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Z. Nishanova, G. Alimova. Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006. 160 b.
2. Sodiqova Sh. Maktabgacha pedagogika. – T., "Tafakkur bo'stoni", 1992.

3. Xasanboeva O.U. va boshq. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. T.: Ilm ziyo. 2006.
4. Odilboyevich, J. H. (2025). RUHIY SALOMATLIKNI MUSTAHKAMLASHDA PSIXOLOGIK YORDAMNING AHAMIYATI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 78(2), 52-59.
5. Jurayev, X. (2025). O 'smirlarda xarakter aksentuatsiyasining o 'ziga bo 'lgan ishonch rivojlanishiga ta'sirining psixologik xususiyatlari. *МАКТАБГАЧА ВА МАКТАБ ТА'LIMI JURNALI*, 3(12).
6. Olimboyevna, R. M., Abdumutalliyevna, B. S., & Odilboyevich, J. X. (2025). SHAXS XARAKTER AKSENTUATSIYASI VA UNING JINOYATCHILIKKA TA'SIRI. *Advances in Science and Humanities*, 1(03), 18-20.
7. Odilboyevich, J. X. (2024). O'SMIRLIK YOSH DAVRIDA SHAXSDA SUITSID XOLATLARINI PROFILAKTIKA QILISH YO'LARI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 47(3), 111-114.
8. Odilboyevich, J. X. (2025). SHAXS XARAKTER AKSENTUATSIYASI VA UNING NAMOYON BO 'LISH TURLARI. *ИКРО журнал*, 15(01), 806-809.
9. Odilboyevich, J. H. (2025). PSIXOLOGIK TRENINGNING MAQSADI VA VAZIFALARI, PSIXOLOGIK TRENINGDA YECHILADIGAN MUAMMOLAR. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 52(1), 107-112.